



## San'atning dunyo miqyosiga kirishi

**Mumtozbeginm Turg'unova**

Xoreografiya jamoalar rahbari

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Abduhamidov Akmal**

O'z DSMI FMF "Xoreografiya" o'qituvchisi

**Annotatsiya:** "Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati" mavzusi bo'yicha tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "San'atshunoslik", "Xoreografiya jamoalari rahbari", "Kasbiy ta'lim" yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning professional tayyorgarligida muhim o'rin tutuvchi muhim mavzularidan biri hisoblanganligi bois, mavzu bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga xoreografiya san'atning turi sifatida alohida qiyofalarning paydo bo'lishi, o'ziga xoslik, ajralib turishi, xoreografiyada pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, xoreografiya san'atining turlari, usullar va yo'nalishlari, opera va balet, raqs dramaturgiyasi, xalq raqs ansambllarida raqsning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi haqida maqolada fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqs, harakatlar, ritmika, jahon xoreografiyasi, o'zbek xalq milliy xoreografiyasi, balet, opera, ansambllar, dunyo san'ati.

Xoreografiyada taxsil olayotgan o'quvchilar xoreografiya san'atining turlari, usullar va yo'nalishlari, opera va balet, raqs dramaturgiyasi, xalq raqs ansambllarida raqsning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga va ko'nikmalarga ega bo'lishi, baletmeysterlik san'atining



tarixi, nazariyasi, jahon balet amaliyotini (maktablar, usullar, balet asarlari tahlili), balet tanqidchiligi asoslarini, sahna texnikasi, sahna dekoratsiyasini bilishi va ulardan foydalana olishi, libretto yozish, kompozitsion reja tuzish, xoreografik leksikadan foydalanish. kompozitor, dramaturg, konsertmeyster bilan ishlash, repetitsiya va spektakllar jarayonida balet artistlari bilan psixologik va ijodiy aloqa o'rnatish, o'zining ijodiy va umumkasbiy darajasini mukammallashtirish, Respublika viloyatlari ijodiy jamoalariga uslubiy yordam ko'rsatishni xoreografiyada yuqori kasbiy ijrochilik tayyorgarligiga ega bo'lish ko'nikmalarini o'rgatadi. Raqs san'ati barcha san'at turlari orasida eng qadimiysi va miliysi hisoblanadi. Imo-ishora raqsning birlamchi manbai sanalib, eng oddiy va ibtidoiy odam o'zining ruhiy va jismoniy kechinmalarini ifodalash uchun foydalangan eng birinchi foydali usuldir. Bu insoning o'zida kashf etgan ilk yordamchi in'om hisoblanadi. Inson o'zining mavjudligidan, hali tushunarsiz, sirli va dushmanday bo'lib ko'ringan tabiatda ustunligidan quvonar ekan, o'zining va atrofidagi tabiatning mavjudligi sabablari haqida o'ylay boshlaydi va uning birinchi fikri, o'ziga-o'zi bergan birinchi savoliga javobi - bu Tangri bo'ladi. Uning birinchi hissi esa-tangriga bo'lgan minnatdorchilik va qo'rquvi bo'ladi menimcha?!

Ibtidoiy odam o'zining oddiy turmushida eng sodda imo-ishoralar bilan qoniqadi, ushbu imo-ishoralardan bir-biri bilan muloqot qilishning bu yagona usuli, minnatdorlik ibodati uchun foydalangan kunidir.

Ibtidoiy odamning harakatlari va qiliqlari go'zallikdan yiroq, ular qandaydir qiymatga ega emas, ular shunchaki qandaydir yo'l bilan biror- bir muayyan niyatsiz o'zi ko'rgan hodisalarga taqlid qilish yoki o'zini ularning izmi ostida tasvirlash vositasidir. U shunchaki chaqmoq zarbalarida qanday qilib qo'rquvdan yiqilishini, qanday qilib quyoshga jilmayishini, qanday yeb-ichishini, makon ko'lamini ko'rsatish uchun qo'llarini qanday silkitishini tasvirlaydi. Mimika, imo-ishoralar qadimgi davrning kechki bosqichlarida ham uzoq vaqt davomida ibodatning yagona usuli bo'lgan, chunki imo-ishora ko'zga ko'rinadi, u kechinmalarni ifodalashning boshqa usuliga qaraganda qulay va moslashuvchanroq.



Tezlik bilan murakkablashib borgan o'zini-o'zi anglash va madaniyat, shu bilan birga tangrini anglash, yana boshqa ta'riflarni ifodalash uchun yangi shakllarni talab eta boshlaydi.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi yer yuzida quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi. Qadimgi davlatlar dastlab Yefrat, Tigr, Nil, Ind, Gang, Xuanxe, Yanszi, Qizil irmoq daryolari yoqalarida, keyinroq, Yevropaning janubiy tomonlarida, Bolqon va Apennin yarim orollarida paydo bo'lgan. Bu davrga kelib aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajraldi. Dehqonchilik, chorvachilik, savdo sotiq, xunarmandchilik, san'at rivojlandi. Bu esa, o'z navbatida, inson ma'naviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, san'atning ravnaqiga katta turtki berdi. Endilikda san'at ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallana boshladi. Bu davrda ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar muhim tantanalarga aylandi. Yirik maqbara, saroylar qurish, ularni bezashga katta ahamiyat berila boshlandi. Devoriy suratlar, monumental relyef va haykallarda xukmdorlar, afsonaviy qahramonlar faoliyati ulug'landi. Odamlarning diniy tushunchalari ham o'zgardi. Odamlar tabiat kuchlariga sig'inishdan asta-sekin ilohiy kuchlarga-xudolarga sajda qila boshladilar. Bu xudolar timsolida aqliy barkamol, mu'tabar, har narsaga qodir bo'lgan, o'z harakteri va ko'rinishi jihatdan odamlarga o'xshaydigan obrazlarni tasavvur eta boshladilar. Ularga atab hashamatli ibodatxonalar, monumental haykallar yaratdilar, mahobatli rasmlar ishladilar. Shu bilan birga, inson obrazi san'atning bosh qahramoniga aylana boshladi. Uning jasorati va olijanoblighi, iroda va aql-zakovatining qudrati san'atkorlar tomonidan kuylandi.

Bu davrga kelib yer yuzida katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, harakteri, voqelikni obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi. Ana shunday davlatlar ichida Qadimgi Misr, Yunoniston va Rim alohida o'rinni egallaydi va keyingi jahon san'ati rivojining asosini tashkil etadi.

Bu yerlarda qurilgan mahobatli me'moriy majmualarda ilk bor inson aql zakovati, boy tasavvuri o'zini namoyon qildi. Haykaltaroshlik asarlarida insonning jismoniy go'zalligi,



ma'naviy olami badiiy shakllarda o'z aksini topdi. Amaliy bezak san'ati inson yashaydigan muxitning ajralmas qismiga aylandi.

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Quldorlik jamiyati vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, quldorligini namoyon etib, quldorlikning mafkurasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, hulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Shu bilan bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka, ezgulikka, vatanparvarlikga va yaxshilikka intilishga da'vat etdi. Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, yanada keng va atroflicha yondoshishga yordam beradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Madina Muhammedova “Jahon va o’zbek xoreografiya san’ati tarixi”.
2. R.Karimova “O’zbek raqslari” Toshkent Cholpon nashriyoti.2003-yil
3. I.Avdeyeva “O’zbek milliy raqs tarixidan” Toshkent 2001-yil.